

# **BUXORO VILOYATIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR**

## **2023- YIL YANVAR-IYUN**



## Buxoro viloyatida 2023- yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

Raqamlar:




**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar - 12 318,0 mlrd. so'm**

**O'sish sur'ati - 94,2 %**

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **12 318,0** mlrd. so'mni yoki o'tgan yilga nisbatan **94,2 %** ni tashkil etdi. Moliyalashtirishning manbalari bo'yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi – **5 425,7** mlrd. so'm yoki **44,0 %** i xorijiy investitsiyalari va kreditlari, **4 941,1** mlrd. so'm, yoki **40,2 %** i korxonalar va aholining o'z mablag'lari hisobiga to'g'ri keladi.

### Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar taqsimlanishi

2023- yil yanvar-iyun oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan - **1358,3** mlrd. so'm, jami investitsiyalardagi ulushi **11,0 %** ni, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa **10 959,7** mlrd. so'm, jami investitsiyalardagi ulushi **89,0 %** ni tashkil qildi.



■ markazlashgan ■ markazlashmagan

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi


	Jami investitsiyalar, mlrd. so'mda	Shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan, % da)						
		Respublika byudjeti	Korxonalar va tashkilot mablag'lari	Aholi mablag'lari	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarzi mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
<b>Jami viloyat</b>	<b>12 318,0</b>	<b>5,9</b>	<b>27,6</b>	<b>12,6</b>	<b>9,5</b>	<b>44,0</b>	<b>0,4</b>	<b>-</b>
Buxoro sh	2 867,5	5,7	40,9	7,6	21,7	24,1		-
Kogon sh	140,3	3,7	18,3	13,4	3,3	61,3		-
Olot	487,2	14,0	12,2	28,7	4,3	40,8		-
Buxoro	1 578,7	3,3	39,7	8,9	3,7	44,4		-
Vobkent	400,1	15,1	29,9	18,9	18,1	18,0		-
G'ijduvon	947,6	4,6	4,7	24,4	11,4	51,6	3,3	-
Kogon	1 064,8	2,5	14,2	11,3	12,2	59,8		-
Qorako'l	726,9	5,1	19,7	16,4	0,0	55,5	3,3	-
Qorovulbozor	553,6	0,5	43,5	3,2	1,5	51,3		-
Peshko'	713,8	6,6	4,1	17,4	2,6	69,3		-
Romitan	2 278,7	5,9	28,4	6,7	2,4	56,6		-
Jondor	331,5	11,1	21,0	31,5	11,9	24,5		-
Shofirkon	227,3	23,3	28,1	36,4	12,2	-		-

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish  
manbalari bo'yicha tarkibi**


	Mrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
<b>Jami</b>	<b>12 318,0</b>	<b>94,2</b>	<b>100</b>
<b><i>Markazlashgan:</i></b>	<b>1 358,3</b>	<b>107,1</b>	<b>11,0</b>
Respublika byudjeti	731,4	189,5	5,9
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	-	-	-
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	54,3	95,8	0,4
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan xorijiy kreditlari	572,6	69,3	4,7
<b><i>Markazlashmagan:</i></b>	<b>10 959,7</b>	<b>92,8</b>	<b>89,0</b>
Korxonalar mablag'i	3 394,6	153,7	27,6
Aholi mablag'i	1 546,5	101,9	12,6
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	4 853,1	63,4	39,4
Tijorat bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari	1 165,5	2,7 m.	9,5

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmiga nisbatan moliyalashtirish manbalarining tarkibi, % da


### Markazlashgan



### Markazlashmagan




## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi (jamiga nisbatan, % da)



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari bo'yicha **6 688,3** mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning **54,3** % ni tashkil etdi, mashina, uskunalar va jihozlarni xarid qilishga **4 506,6** mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi **36,6** % i) va boshqa xarajatlarga **1 123,1** mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi **9,1** % i) investitsiyalar o'zlashtirilgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning jamiga nisbatan ulushi, % da




Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqoridagi diagrammada ko'rsatib o'tilganidek, tashish va saqlash faoliyati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan **2 787,4** mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning **22,6** % i o'zlashtirilgan.

Shuningdek asosiy kapitalga investitsiyalarning eng ko'p investitsiya hajmlari elektr energiyasi va gaz ta'minotiga **21,5** (yoki **2 645,3** mlrd. so'm), ishlab chiqaradigan sanoatiga **18,7** % (yoki **2 302,2** mlrd. so'm), uy-joy qurilishiga **9,6** % (yoki **1 176,7** mlrd. so'm), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga **7,6** % (yoki **939,0** mlrd. so'm), tog'-kon sanoatiga **5,9** % (yoki **732,8** mlrd. so'm), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalarni tamirlashga **3,1** % (yoki **381,3** mlrd. so'm),

qurilishga **2,8 %** (yoki **342,4** mlrd. so‘m), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishga **1,4 %** (yoki **174,8** mlrd. so‘m), ta‘limga **1,4 %** (yoki **166,8** mlrd. so‘m), suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishga **1,2 %** (yoki **151,0** mlrd. so‘m), boshqa faoliyat turlariga **4,2 %** (yoki **518,3** mlrd. so‘m) to‘g‘ri keladi.

Turar-joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo‘yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog‘liq.


### Xorijiy investitsiya va kreditlar jamiga nisbatan ulushi, % da



2023- yil yanvar-iyun oylarida **5 425,7** mlrd. so‘m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmining **44,0 %** i xorijiy investitsiya va kreditlari hisobidan amalga oshirilgan. O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur‘ati **64,0 %** ni tashkil qilgan. Shundan xorijiy investitsiyalarning hajmi **2 400,5** mlrd. so‘mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **19,5 %** ni tashkil qildi. Xorijiy kreditlarning hajmi **3 025,2** mlrd. so‘mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **80,5 %** ni tashkil qildi.



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlarning jamiga nisbatan ulushi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tog'-kon sanoati
- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr energiyasi va gaz ta'minoti
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish
- Tashish va saqlash
- Qurilish
- Boshqa faoliyat turlari

Xorijiy investitsiya va kreditlarning asosiy hajmi tashish va saqlashga **1 604,1** mlrd. so'm (yoki **29,6** %), elektr energiyasi va gaz ta'minotiga **1 437,1** (yoki **26,5** %), ishlab chiqarish sanoatiga **1 373,7** mlrd. so'm (yoki **25,3** %), tog'-kon sanoatiga **414,6** mlrd. so'm (yoki **7,6** %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga **240,7** mlrd. so'm (yoki **4,4** %), qurilishga **94,6** mlrd. so'm (yoki **1,7** %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishga **56,0** mlrd. so'm (yoki **1,0** %) va boshqa faoliyat turlariga **204,9** mlrd. so'm (yoki **3,9** %) to'g'ri keladi.

## Xorijiy investitsiya va kreditlar (mlrd. soʻmda)

	Jami investitsiya va kreditlar	Shu jumladan:		
		Toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalar	Oʻzbekiston Respublikasi kafolati ostida boʻlgan xorijiy kreditlar	Boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
<b>Jami</b>	<b>5 425,7</b>	<b>2 298,1</b>	<b>572,6</b>	<b>2 555,0</b>
Buxoro sh	691,1	79,9	465,9	145,3
Kogon sh	86,0	3,4	27,1	55,5
Olot	198,8	117,5	78,7	2,6
Buxoro	700,7	587,5	-	113,2
Vobkent	72,3	-	-	72,3
Gʻijduvon	489,2	428,4	-	60,8
Kogon	636,4	103,7	0,9	531,8
Qorakoʻl	403,2	398,1	-	5,1
Qorovulbozor	284,4	-	-	284,4
Peshkoʻ	494,1	418,8	-	75,3
Romitan	1 288,3	160,8	-	1 127,5
Jondor	81,2	-	-	81,2
Shofirkon	-	-	-	-

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tumanlar kesimida tahlil qilinganda, Romitan tumani eng yuqori o'rinni egalladi. Ushbu tumanda **2 278,7** mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilgan, o'sish sur'ati **69,3** % ni tashkil qildi. Keyingi o'rinni Buxoro shahri egalladi, o'zlashtirilgan investitsiyalar **2 867,5** mlrd. so'm, o'sish sur'ati **101,5** ni tashkil qildi. Buxoro tumani **1 578,7** mlrd. so'mlik asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bilan uchinchi o'rinni egalladi. Ushbu hududda o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati **170,4** % ni tashkil qildi.

## Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida

	Ming soʻmda	Oʻsish surʻati, % da
<b>Jami</b>	<b>6 106,8</b>	<b>92,6</b>
Buxoro sh	9 874,5	99,7
<b>Kogon sh</b>	<b>2 191,7</b>	<b>148,0</b>
Olot	4 721,3	86,7
<b>Buxoro</b>	<b>8 995,4</b>	<b>167,7</b>
Vobkent	2 732,8	120,5
<b>Gʻijduvon</b>	<b>2 976,1</b>	<b>208,3</b>
Kogon	12 814,0	36,6
<b>Qorakoʻl</b>	<b>4 275,7</b>	<b>178,1</b>
Qorovulbozor	28 243,6	83,7
<b>Peshkoʻ</b>	<b>5 520,6</b>	<b>3,6 m.</b>
Romitan	15 242,2	68,0
<b>Jondor</b>	<b>1 813,3</b>	<b>115,3</b>
Shofirkon	1 229,4	94,7

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aholi jon boshiga taqsimotida eng yuqori koʻrsatkichni Qorovulbozor tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **28 243,6** ming soʻmni, oʻsish surʻati **83,7 %** ni tashkil qildi. Keyingi oʻrinni Romitan tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **15 242,2** ming soʻmni, oʻsish surʻati **68,0 %** ni tashkil qildi. Kogon tumani uchinchi oʻrinni egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **12 814,0** ming soʻmni, oʻsish surʻati **36,6 %** ni tashkil qildi.

## Ob'yektlarni ishga tushirish

2023- yilning yanvar – iyun oylarida umumiy maydoni **966,0** ming kv.m. bo'lgan **3 868** xonadonli **3 221** ta turar-joy ishga tushirildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,7** foizni tashkil etdi. Shundan umumiy maydoni **738,0** ming kv.m bo'lgan **2 615** ta xonadonli **2 616** ta turar joylar qishloq joylariga to'g'ri keladi. (O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **95,4** %) Turar-joylarni qurilishiga **1 130,2** mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar o'zlashtirildi.

**Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi**

*Aloqa telefoni:*

**(65) 223-81-99**